

**FEYERBAX RUSFALSAFASI NAMOYONDALARI  
QARASHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI**

***SOBIROV ALI OTABEK O‘G‘LI***

*TDTr.U talabasi.*

***Ramatov Jumaniyoz Sultanovich***

*Ilmiy raxbar.*

***Annotatsiya:*** Nemis falsafasining yirik vakillaridan biri Lyudvig Feyrbax edi. U Gegel va Kant idealizmini tanqid qilib, XVII asr materializmini ilg‘or traditsiyalarini tikladi va rivojlantirdi. Falsafani yanada yuqori pog‘onaga ko‘targan kishilar XXI asr oxiridagi rus faylasuflari Belinskiy, Gersen, Dobrolyubov, Chernishevskiy, Pisarevlar edilar.

***Kalit so‘zlar:*** Feyrbax, Belinskiy, Gersen, Dobrolyubov, Chernishevskiy, Pisarev.

***Abstract:*** One of the great representatives of German philosophy was Ludwig Feuerbach. Criticizing the idealism of Hegel and Kant, he restored and developed the advanced traditions of materialism of the 17th century. The Russian philosophers Belinsky, Gersen, Dobrolyubov, Chernyshevsky, Pisarev at the end of the 21st century were the people who raised philosophy to a higher level.

***Key words:*** Feyrbach, Belinsky, Gersen, Dobrolyubov, Chernyshevsky, Pisarev.

Nemis falsafasining yirik vakillaridan biri Lyudvig Feyrbax / 1804-1872/ edi. U Gegel va Kant idealizmini tanqid qilib, XVII asr materializmini ilg‘or traditsiyalarini tikladi va rivojlantirdi. Bu davrda XIX asrning ikkinchi choragida Germaniyada sanoat kapitalizmi kuchaygan, jamiyat tarixida ikki sinf – burjua va proletariat sinfining o‘ssishi davri edi. Dvoryan bilan burjuaziya va burjuaziya bilan proletariat orasidagi sinfiy ziddiyatlar kuchaygan edi. Bularning hammasi Germaniyadagi g‘oyaviy kurashning kuchayishiga olib kelgan edi. Bu kurash Gegel falsafasini tushkunlikka tushishida o‘z ifodasini topdi. Bu davrdagi yosh

Gegelchilar orasida Feyrbax ham bor edi. U birinchi bo‘lib Gegel idealizmga qarshi chiqib, materializm bayrog‘ini ko‘tardi. U idealizm va diniy asoslarni tanqid qildi. U ijobiy g‘oyalarni targ‘ib qildi. 1839 yili «Gegel falsafasining tanqidi», 1841 «Xristianlikning mohiyati» degan asarini yozdi. Feyrbaxning bu asarlari ateistik idealarni o‘rtaga qo‘yilishida katta rol o‘ynaydi. Feyrbax materiyani doimiy uzlkusiz harakatdaligini, tabiat, materiya birlamchi, ong, ruh ikkilamchi ekanligini ta’kidlaydi. Falsafaning asosiy masalasini materialistlar hal qiladi. Materializmni yangi pog‘onaga ko‘taradi, unga tabiiy ilmiy asos beradi. U mexanistik materializmning tabiat qotib qolgan, harakatsiz, deb qarashi o‘ringa tabiat rang-barang, deb qaradi. U bilish nazariyasini materializm asosida rivojlantirdi. Feyrbax Kant agnostitsizmini tanqid qilib, dunyoni bilish mumkinligini isbotladi. Uning fikricha, bilish jarayoni sezgilarga, keyin esa tafakkurga o‘tish yo‘li bilan ob‘ektiv haqiqatni bilishdan iboratdir. Lekin Feyrbax materializmi va bilish nazariyasi chegaralangan edi.

Feyrbax Gegel dialektikasining ratsional mag‘ziga to‘g‘ri baho bermadi, uning idealizmi bilan dialektikasini qo‘shib uloqtirdi. Feyrbaxning kamchiligi shuki: u tabiatga va bilish jarayoniga tarixan yondoshmadi, bilish jarayonida jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga o‘tish dialektikasini va amaliyotning rolini metafiziklar tushuntirdi. Ya’ni bilishning sub’ekti qilib tarixiy-ijtimoiy munosabatdan tashqaridagi mavhum insonni oladi, kishilarni biologik tarzda tushunadi, lekin, ular orasidagi sinfiy munosabatni ko‘rmaydi. Inson harakati faoliyatini ko‘rolmadi. Feyrbax materialistik sistemani kishi fiziologiyasi va psixologiyasi asosida ko‘rishga intildi. Ijtimoiy jaholat, tengsizlikdan kishilarni qutqarishni maqsad qilib qo‘yadi, lekin bu vazifani amalga oshirishda ijtimoiy tuzumni yo‘qotilishini zarurligini bilmadi. Aslida dunyoni turlicha izohlash mumkin, lekin gap uni o‘zgartirishdadir, degan edi boshqa bir faylasuf.

U dini jaholat va qorong‘ulik deb tushundi, lekin uni sinfiy va ijtimoiy mohiyatini tushuntira olmadi. U ijtimoiy hodisalarga materializmni tatbiq eta olmadi.

Shunday qilib Feyrbax Gegel falsafasining asl mag‘zini uloqtirdi. Dinga qarshi chiqdi. Shunday bo‘lsada, ba’zi faylasuflar ularning ijobiy tomonlarini

ko'rsatdilar. Falsafani yanada yuqori pog'onaga ko'targan kishilar XXI asr oxiridagi rus faylasuflari Belinskiy, Gersen, Dobrolyubov, Chernishevskiy, Pisarevlar edilar.

Bu faylasuflar o'tmish faylasuflaridan shu bilan farqlanadilarki, ular ezilgan omma ideologlari sifatida maydonga chiqqanlar. Rus revolyusion demokratlarining xizmati shundaki, ular materialistik mazmunga ega bo'lgan inqilobiy nazariyalarni olg'a surdilar. Ular Gegel dialektikasidan foydalanishda uni tanqid qilish bilan birga uni «falsafaning algebrasi» /Gersen/ deb bildilar. Ular dinga qarshi kurashdilar.

Rossiya ezilgan ommasining ozodlik yo'li bu birdan-bir revolyusion yo'l ekanligi g'oyasini ilgari surdilar. Ularning falsafiy asarlari chuqur ilmiy asosdagi genial asarlardir. Falsafaning asosiy masalasini hal qilishda tashqi dunyoning moddiyligi va ongning ikkilamchiligini hal qilishda Gegelni tanqid qilib, ruh va tafakkur materiya mahsulidir, materiya birlamchi, ong esa uning mahsulidir, - deb, tushuntirdilar. Ularning fikricha, materiya bu ob'ektiv haqiqatdir, uni hech vaqt yo'q qilib bo'lmaydi deydi. Masalan Gersen shunday deydi: «Xohlaganingcha moddani abstraktlashtirish mumkin, lekin uni hech vaqt yo'qota olmaysan». /Filosof, izbr. proizv. T. 1. str. 151 yana 280 betda shunday deydi/.

Gersen falsafasi dialektikani materialistik asosladi, falsafani tabiat qonunlarigagina bog'lab qo'ymay jamiyat qonuniga ham bog'ladi. Uningcha odam faqat fikr yurituvchigina emas, balki ta'sir etish bilan o'zini o'rab turgan tabiatni maqsadga bo'ysundirish kerak. Gersen dialektik uslubni va amaliy faoliyatni birligini ham ko'rsatdi.

Insonning amaliy faoliyati tarixiy ijodiy kuchlardan iboratdir, deydi, u. Amaliyot bilan nazariya birga borishi kerakligini ta'kidladi, dunyoni qayta qurishda falsafa ilmiy qurol ekanligini ko'rsatdi, lekin bu fikrni oxiriga yetkaza olmadi. Bunga sabab Rossiyaning ijtimoiy qoloqligi edi. Falsafa tarixida Gersen dialektikani ilmiy ravishda asosladi, u metafizik qarashga qarshi chiqdi, tabiat va jamiyat hodisalarini bir-biriga bog'liq ravishda, o'zaro ta'sirda ekanligini ko'rsatdi.

Gersen, umumiy jamiyatda ham har bir hodisa boshqa hodisalar bilan bogʻlangan boʻlib, falsafani vazifasi ana shu bogʻliqlikni ochishdir, tabiat va jamiyat taraqqiyoti jarayoni eskining oʻlishi bilan yangining paydo boʻlishidagi kurashidadir, degan edi.

Koʻrinib turibdiki, uning uslubi revolyusion xarakterda edi. Shunday boʻlishiga qaramay u jamiyatning taraqqiyotida hal qiluvchi kuch, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabati ekanligini koʻrsata olmadi, tarixiy materializmga kelganda toʻxtab qoldi.

Xuddi shuningdek, Gersen kabi Belinskiy, Dobrolyubov, Cherni-shevskiylar ham materiya birlamchi ong ikkilamchi, tabiat va jamiyat hodisalari, oʻsib, oʻzgarib turadi, ular oʻzaro bogʻliq, deb idealistik qarashga qarshi chiqdilar. Jamiyat ikki bir-biriga qarama-qarshi sinfdan tashkil topganligi kishilik jamiyati tarixi oʻzining turli bosqichlarida mana shu sinflarning oʻrtasidagi kurashni oʻz ichiga oladi, deb koʻrsatdilar. Jamiyat taraqqiyotini dialektik asosladilar, lekin shu bilan birga progressiv hal qiluvchi kuch dehqon sinfidir deytilar.

Rus revolyusion demokratlari falsafasining oʻziga xos xususiyati boʻlib, birinchidan, u internatsional xarakterga ega edi, ikkinchidan, ular falsafaning asosiy masalasini materializm asosida tushungan holda idealizm va dinga qarshi kurashdir, uchinchidan, ularning materialistik qarashlarida dialektika elementlari mavjud edi.

Oʻrta asr va yangi davr Yevropa falsafasini oʻrganish hozirgi davr uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki, falsafa oʻtmishda oʻzining shakllanishi uchun tarixiy davrlarni boshidan oʻtkazgan. Uning baʼzi muammolari hayot chigʻiriqlaridan oʻtaolmagan. Natijada, yangi muammolarni keltirib chiqargan va oʻrtaga qoʻygan. Har bir davr oʻzining yutuqlariga ega boʻlish bilan birga kamchiliklariga ham egadir. Falsafa tarixini oʻrganish hozirgi zamon kishilarining falsafiy tafakkurini rivojlanishiga asos boʻladi. Tarixga nazar tashlab kelajak falsafasini yaratishga yordam beradi.

Maʼlumki falsafa tarixida sistema va konsepsiyalar yaratgan faylasuf allomalar oz emas. Ularning koʻpchiligi falsafa tarixida oʻchmas iz qoldirganlar. Ularning qoldirgan falsafiy merosning jiddiy ahamiyati shundaki, u falsafiy

meroslarni hozirgi kun falsafasi bilan solishtirgan holda yangi falsafiy nazariyalarni yaratish mumkin. Ular ma'lum ma'noda qadriyatlar ham bo'lib hisoblanadi. Bu qadriyatlarni aksariyat qismi inson faoliyati bilan bog'liqdir. Uning tarbiyasi, dunyoqarashiga aloqador. Shu sababli ham Yevropa falsafasi durdonalaridan foydalanish insonlarning ayniqsa, yoshlarning falsafiy saviyasini oshirishga yordam beradi. Nazariy va amaliy faoliyatini mustahkamlaydi.

## REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз кизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой кизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ганибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухолиқов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 41-46.

6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Курамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗARO АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.